

### BUYUK SIYMOLARIMIZ MAQSUD SHAYXZODA QALAMIDA

Temirova Madina Tohir qizi

Toshkent davlat davlat transport universiteti "Transport tizimlari boshqaruvi"

Fakulteti 3-bosqich talabasi

Minajatdinova Zaynab Islambek Qizi

"Aviatsiya transporti muhandisligi" fakulteti 2-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Maqsud Shayxzodaning «Jaloliddin Manguberdi» dramasida vatan erki, mustaqilligi uchun fidoyilarcha kurash olib borgan jasur sarkarda qiyofasini badiiy gavdalantirgan Jaloliddin Manguberdining Amir Temurga ham ibrat bo'lgan buyuk siymodir.

**Kalit so'z:** Buyuk, shoir, mutafakkir, doston, liro-epik, drama, Ozarbayjon, iste'dod aksilinqilobiy, drama.

Shoirimiz nomi nafaqat O'zbek kitobxonlari, balki qardosh Ozarbayjon o'quvchisi uchun ham ardoqli nom ekani hech kimga sir emas. Chunki isdedodli shoir Ozarbayjon diyorida tug'ilib ijodkor sifatida O'zbekistonda, o'zbekler bag'rida ulg'aydi, atoqli qalam sohibi sifatida kamol topadi. Hali savodi chiqmasidan she'r yozishni mashiq qilgan shoirlardan biri bu Maqsud Shayxzoda. O'zbek adabiyotining buyuk namoyondalari G'afur G'ulom va Oybek kabi otashnafas san'atkorlar safida ijod qilgan Maqsud Shayxzoda zuvalasi she'riyat shulasi bilan yorilgan kuychi edi. Maqsud Shayxzoda badiiy asarlar yozibgina qolmay, adabiyotshunoslik va adabiy tanqid sohasida samarali ijod qilgan. Shoirning buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodi va faoliyatini o'rganishga bag'ishlagan jiddiy tadqiqotlari navoiyshunoslik fanini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqgan. Ijodkor ekanini namoyon etgan davr hisoblangan. Maqsud Shayxzoda Toshkentga kelgach, turli gazeta-jurnallarda adabiy xodim bulib ish faoliyatini yuritadi. Keyinchalik O'zbekiston Fanlar komiteti qoshidagi til va adabiyot institutida ilmiy xodim vazifasida ishini davom etiradi.

«Jaloliddin Manguberdi» dramasida ona-Vatan uchun, uning ozodligi uchun bosqinchilarga qarshi kurash olib borgan jasur sarkarda, buyuk hukmdor siyoshi o'zining, ayniqsa, tabiiy, jonli tasvirlanishi bilan ajralib turadi. Shoirimiz faqatgina doston yoki she'riyat tuplami yozish bilan chegaralanib qolmay drama ham yozishga usta shoirlardan bo'lgan. "Jaloliddin Manguberdi" dramasini yozishga qalam ushlagan Shayxzoda unda o'z yurtining ozodligini va mustaqilligi uchun mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashgan Xorazm shohining jangovor jasoratini tarixan aniq va haqqoniy tasvirlaydi.

"Jaloliddin Manguberdi" tragediyasi o'zbek xalqining feodalizm davridagi tarixiy o'tmishini va shu davrda yashagan "Kavkaz xalqlarining jallodi" Jaloliddinni milliy qahramon sifatida tasvirlovchi asar sifatida keskin qoralandi. Holbuki, yaxshi qurollangan nemis armiyasi sobiq Sovet davlatining g'arbiy chegaralarini yorib kirib, Moskva bo'sag'asiga kirib kelgani va sovet davlati taqdiri o'llim xavfi ostida qolganida, shu davlat rahbarlari ijod ahlini o'tmishda qahramonlik, jangovarlik, vatanparvarlik namunalarini ko'rsatgan edi. 1945 yilda Reyxstagga G'alaba bayrog'ini o'rnatgan jangchilar ana shu o 'tmish qahramonlariga bag'ishlangan asarlardan rag'bat olib mardona kurashgan., ota-onalari bag'rige g'olib jangchi bo'lib qaytgan

edilar. Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" trilogiyasi ham o'sha yillarda tarixiy davrning ijtimoiy buyurtmasi asosida yaratilgan edi.

Odatda ulkan yozuvchilar biror yirik asarni yozishga kirishganlarida shu asarning yaratilish tarixiga oid ma'lumotlarni qariyb qoldirmaydilar. Biz u yoki bu yozuvchining qaysi tarixiy memuar asardan ko'proq foydalangani, o'z asarini qachon yoza boshlagani va asar ustida qanday ishlaganidan ko'pincha bexabar qolamiz Shayxzodaning mazkur asar ustida olib borgan ijodiy ishi ham bizga to'la ma'lum emas. Buning boisi shundaki. Shayxzoda odatda muayyan mavzuga doir manba bilan tanishib chiqqach, bo'lajak asarda ishtirok etajak tarixiy va notarixiy shaxslarni tanlab, asarning syujet chizig'ini pardama-parda o'z xayolida, boshida shakllantirgan. U hatto asarning qanday boshlanib, nima bilan tugashigacha - hammasini xayolida pishirib, so'ng qog'oz ga tushirgan. Lekin shunga qaramay, uzuq-yuluq xotiralar va mazkur asarning hozirda Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi arxivida saqlanayotgan ba'zi bir nusxalari asosida "Jaloliddin Manguberdi"ning yaratilish tarixini ozmi ko'pmi ko'z oldimizga keltirishimiz mumkin.

«Jaloliddin Manguberdi» dramasi badiiy jihatdan teran asardir. Asar monolog va dialoglari pishiq ishlangani, har bir qahramon xarakterining ham til boyligini, ham ruhiy dunyosidagi o'ziga xoslikni ifodalay oladigan yo'sinda ekani bilan ajralib turadi. Qahramonlararo konfliktlarda sun'iylilik yo'q, ular voqealarning tabiiy oqimi va xarakterlar kurashidagi maqsadning hayotiyligi va haqqoniyligidan kelib chiqadi. Shunday qilib adib bizga ancha boyliklarini yani ajoyib kitoblarini bizga meros qilib tashlab ketgan. 1967-yil 7 - fevral 58 yoshida Toshkentda vafot etadi. Xalqimiz yana bir suyukli yozuvchisidan ajraladi. 2001-yili O'zbek adabiyot va madaniyati rivojiga qushgan ulkan hisasi uchun Shayxzoda "buyuk xizlatlari uchun" ordeni bilan taqdirlandi. Har bir inson bu dunyoga kelib uzidan nimadir qoldiradi deyishganidek adibimizdan ham bizga juda ko'p kitoblar, badiiy asarlar, dramalar xotira bo'lib qolgan, shulardan biri Maqsud Shayxzodaning «Jaloliddin Manguberdi» dramasi katta san'atkorlik bilan yozilgan poetik va o'zbek xalqining qahramonlik , vatanparvarlik obrozni o'ziga mujassam etgan asardir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Sobir Mirvalliev "O'zbek adiblari" Toshkent "Yozuvchi nashriyoti" 2000 yil
2. X Yusupova "Mirzo Ulug'bek" Uqituvchi nashriyoti 1994 - yil
3. Yuldashev Q, 9-sinf adabiyoti Yangiyul poligraf servis 2014 - yil
4. Zokirov M. Maqsud Shayxzoda. Adabiy tanqidiy ocherk, T., 1969.
5. Yusuf Shomansur. Shayxzoda — bunyodkor shoir, T., 1972.